

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAZAROVA SHAXLO SHUXRATOVNA

**ZAMONAVIY KOREYS VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL
OBRAZINING IJTIMOIIY-ESTETIK TALQINI
(Pak Van So va Oydin Sobirova ijodi misolida)**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bazarova Shaxlo Shuxratovna

Zamonaviy koreys va o‘zbek adabiyotida ayol obrazining ijtimoiy-estetik talqini
(Pak Van So va Oydin Sobirova ijodi misolida)..... 3

Базарова Шахло Шухратовна

Социально-эстетическая интерпретация образа женщины в современной
корейской и узбекской литературе (на примере творчества Пак Ван Со и
Ойдин Сабировой)..... 27

Bazarova Shakhlo Shukhratovna

Social-aesthetic interpretation of the woman’s image in modern Korean and
Uzbek literature (on the example of the work of Park Wan Suh and Oydin
Sobirova) 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAZAROVA SHAXLO SHUXRATOVNA

**ZAMONAVIY KOREYS VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL
OBRAZINING IJTIMOIIY-ESTETIK TALQINI
(Pak Van So va Oydin Sobirova ijodi misolida)**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4846 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurova Guzal Xotamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qarshiboyeva Uljon Davirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Abbasova Dilfuza Karimbek qizi
filologiya bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" may soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61824 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" april kuni tarqatildi.
(2025-yil "22" april da No 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ikki xalq badiiy asarlarining qiyosiy tadqiqi, millatlar o'rtasidagi adabiy aloqalarning rivojlanishi, shuning bilan birga ularda milliy ruhning ifodalanishini ilmiy baholash va tadqiq etish, badiiy matnda tarixiy-milliy manzarani qaytadan yaratish, shuningdek, mazkur muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ayni paytda milliylikni qayta yaratish masalasini o'zida aks ettirgan adabiy asarlarda hayot, inson, olam modelining o'zgachaliklarini to'liq o'rganish, ma'lum bir ijodkor asarlarini badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq qilish yuzasidan bajarilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Dunyo adabiyotshunosligida, ilm-fanning hozirgi taraqqiyot bosqichida, badiiy asarlarga turlicha yondashuv, alohida olingan ijodkor badiiy olamini, poetik konsepsiyasini o'rganish, xususan, ayollar adabiyotshunosligi va uning taraqqiyotini bugungi mezonlar asosida tadqiq etishni shart qilib qo'yimoqda. Mazkur tadqiqotni xuddi shu tamoyil va mezonlar asosida bajarish, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarga moslash, bu orqali zamonaviy o'zbek va koreys adabiyotshunosligida ayollar adabiyoti va uning yo'nalish doirasida erishgan yutuqlar, yangicha ilmiy konsepsiyalarga asoslangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zarurati yuzaga keldi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ikki xalq adabiyotini, tarixini, madaniyatini qiyosiy o'rganish masalalarini tadqiq etish yangi bosqichga ko'tarildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, adabiyotshunoslikda ayol ijodkorlar ijodida ayol qalbi va uning kechmishi, adabiy janrlar va badiiy uslub rang-barangligi asosiy talqinga aylanib, qismati, ruhiyati, ma'naviyati, ijtimoiy hayotdagi o'рни va mavqeyi bilan uyg'unlikda tasvirlanmoqda. Binobarin, hayot chorahalarida metin irodali, sabr-qanoatli, mehnatkash, mehribon, vafoli, sadoqatli, kuchli ayol obrazining ruhiyati, ma'naviyati, inqirozi qay yo'sinda ifodalangani tahlil qilinmoqda. Shuningdek, o'zbek va koreys adabiyotida adibalar ijodida ayollar obrazi masalasini qiyoslab tadqiq etish orqali mushtarak va farqli jihatlarini ko'rsatish muammoning dolzarbligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹, – degan yurtboshimizning fikrlari bugungi ilm-fanning oldiga katta vazifalarni qo'yimoqda. Shu narsani alohida qayd etishimiz kerakki, bugun ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'рни to'g'risida jamiyatning an'anaviy qarashlari o'zgarayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu esa, o'z navbatida ayollar adabiyoti va uning nazariy asosini o'lchovchi mezon – ayollar adabiyotshunosligining yuzaga kelishiga zamin tayyorlaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир" мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2789-son, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ayollar obrazi, ayollar ruhiyati, ayol qalbi, uning poetikada ifodalanishi masalasiga oid bir qancha tadqiqotlar yuzaga kelgan. Jumladan, o‘zbek, ingliz, rus va koreys adabiyotshunosligida² keng tarzda talqin qilingan. Ingliz, rus va koreys adabiyotshunosligida Nina Beym, A.J.Greyvs, Mariya Makintosh, V.Lipnevich, E.Shovolter, T.Chaban, A.Zorin, S.Aliyeva, Kvak In Kyong (곽인경), Kvon Myong Shik (권면식), Kim Yun Shik (김윤식), Pak Xe Rim (박혜림) tadqiqotlarida bu masalaga maxsus yondashilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida esa Sh.Abdullayeva, A.Mo‘minova, X.Lutfiddinova, P.Kenjayeveva, O.Duysenbayev, G.Umurova, Yu.Eshmatova, M.O‘razbayeva,

² Baym N. Woman’s fiction: A guide to novels by a. about women in Amerika, 1820-1870. (Ayollar badiiy adabiyoti: Amerikadagi ayollar haqidagi romanlarga qo‘llanma, 1820-1870). – Xaga; London: Cornell univ. Press, 1978. – 320 p.; Graves A.J. Woman in America. (Amerikadagi Ayol), 1844.; Makintosh M.J. Woman in America: Her work and her reward. (Amerikadagi ayol: uning mehnati va mukofotlanishi). – N.Y.: – Filadelfiya, 1850.; Липневич В. Литературное обозрение. (Adabiy mushohada), 1986, -№ 3. – С. 43-47.; Shovolter E. Woman who write are woman. (Ayol yozuvchilar ayoldirlar). – New York times book, rev., 1984. 16 dec. – P.1-31.; Чабан Т. Традиция обязывает (An’ana majbur qiladi) // Неман. – Минск, 1984, -№ 3. – С. 162-167.; Зорин А. Русские поэты XIX века. (XIX asr rus shoirlari) // Библиотекарь. – Москва: 1982, -№ 3. – С. 51-53.; Алиевой С. Мир глазами женщины. Заметки на полях «женской прозы». (Dunyo ayol nigohida. “Ayol nasri” sohasiga oid eslatmalar) // Литературная Россия, 1984 йил, 9 марта, -№ 11.– С.11.; [곽은경.(2001).박완서 소설에 나타난 가족관계의 양상. 「건국대학교 일반대학원」. 22-99.서울:건국대학 교]; 권명아. (1994). 박완서 문학연구 역척 모성의 이중성과 딸의 세계의 의미를 중심으로, 「작가세계」,11(3), 57-60.; 김윤식.(1988).천의부봉과 대중성의 근거,「문학사상」,1(3),143-162.; 박혜림.(2012).박완서 소설의 문학치유 가능성 고찰.전쟁체험 소개의 소설을 중심으로. 「경희대학교 일반대학원」. 9-77.서울:경희대학교.

N.Xaytaliyeva, N.Saloxiddinova, H.Muhammedova, M.Xalova ³ singari tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan.

Yuqorida qayd qilingan ishlarda muhokama qilingan keng ko‘lamli masalalarga qaramasdan, koreys va o‘zbek feministik adabiyotida ayol obrazi, ayol ruhiy dunyosi borasidagi izlanishlari to‘liq tadqiq etilmagan. Muammoning batafsil, alohida tadqiqot obyektini sifatida o‘rganilmaganligi bu borada maxsus tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Samarqand davlat chet tillar institutining “Koreys tili va adabiyoti tadqiqi hamda ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy koreys va o‘zbek adabiyotida ayol obrazi, feministik adabiyotning shakllanishi, “ayol” konseptining mohiyatini ifodalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xalq og‘zaki ijodiyoti ayol ijodkorligining fenomeni ekanligi, xususan, koreys va o‘zbek folklorida ayol orzulari, armonlari, quvonch va shodliklarini aks ettiruvchi janrlarning mavjudligini dalillash;

koreys adabiyoti taraqqiyoti va uning bosqichlarini tasniflash, davrlashtirish jarayonida ijodiy metodlarning ustivorligini belgilash;

koreys va o‘zbek ijodkor ayollarining ilmiy biografiyasini yaratish, davr adabiy jarayoni rivojiga qo‘shgan hissalarini aniqlash, ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligi XX asr voqeligi ekanligini, ayollar adabiyotining tarixi va nazariy jihatlarini asoslash;

Pak Van So, Oydin Sobirova ijodida feminizmning voqelanishining mushtarakligi, shakl va mazmun, his-tuyg‘u va kechinma uyg‘unligini, shuning bilan birgalikda ayollar nasrining mavzu-mundarijasini ochib berish.

³ Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик фикрларига доир (“Хамса” асариди): Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1954. – 119 б.; Мўминова А. Ўзбек халқ эртақларида хотин-қизлар образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1967. – 230 б.; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – 136 б.; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек хикояларида қахрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2009. – 128 б.; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – 144 б.; Умурова Г. Зулфия бадиий олами ва поэтик мактаби. Филол.фан.док... (DSc) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – 68 б.; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 135 б.; Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – 135 б.; Хайталиева Н.С. Ҳозирги ўзбек лирикасининг поэтик хусусиятлари (90 йиллар аёллар шеърятини мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 139 б.; Салоҳиддинова Н.И. Ҳозирги ўзбек аёл ижодкорлар шеърятини поэтик образ ва услуб масаласи (Зулфия Мўминова, Зебо Мирзо, Ҳалима Аҳмедова, Фарида Афрўз шеърлари мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Фарғона, 2022. – 58 б.; Мухаммедова Х. Чарльз Диккенс асарларида аёл характери типологияси: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс.автореф. – Тошкент, 2019. – 22 б.; Мухаммедова Н.Э. Маргарет Дрэбл асарларида аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019. – 165 б.; Xalova M.A. Hozirgi o‘zbek ayollar she‘riyatida qalb tasviri va talqini. Filol.fan.dok...(DSc) diss.avtoref. – Samarqand, 2024. – 80 b.

Tadqiqotning obyekti sifatida Pak Van So va Oydin Sobirovalarning asarlari tanlangan. Mavzuni chuqurroq yoritish maqsadida koreys va o‘zbek adibalarining asarlari ham tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmetini Pak Van So va Oydin Sobirova asarlari va ularda ayollar obrazining aks etishi, “ayol” konseptining o‘ziga xos jihatlarini qiyoslash usullari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, dialektik, germeneytik, struktural, analitik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“ayollar adabiyoti” va “ayollar adabiyotshunosligi”ning mohiyatini yoritishda o‘zbek va koreys folklorshunosligi janrlari tahlili orqali ayollar nasrining poetik xususiyatlari, ayol yozuvchilar ijodiyoti va ularning adabiyotdagi mavqei, asarlaridagi mavzu va g‘oya doirasining mazmuni aniqlangan;

jahon adabiyotshunosligida ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligining bugungi kunda tizimli tadqiqot sifatida tadqiq etilayotganligi, yangi davr adabiyotida ayolga ayol ko‘zi bilan qarash yangi bosqichga ko‘tarilganligi dalillangan;

zamonaviy o‘zbek va koreys feministik adabiyotining vakillari asarlarida ayol obrazining mohiyatini yoritish har ikkala millat ayollariga xos bo‘lgan mehribon ona, sabrli rafiqqa, oqila qiz kabi obrazlar Oydin Sobirovaning “Chaqaloqqa chakmoncha”, “Kelin o‘g‘il tug‘ipti”, Pak Van Soning “Sarob kapalagi” (“환각의 나비”) hikoyalari, “Ona iztirobi” (“엄마의 말뚝”) romani tahlili asosida isbotlangan;

“ayol” konseptining mohiyatini anglatishda o‘zbek va koreys adibalari Oydin Sobirovaning “Yuragida o‘ti bor”, “Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit” va Pak Van Soning “Qora beva” (“흑과부”), “Haliyam tush ko‘ryapsizmi?” (“그대 아직도 꿈꾸고 있는가”) hikoyalari tahlili orqali, “axloqiy”, “hissiy” va “xan” konseptlarida ayol ruhiyatining nozik qirralari oila, muhabbat va jamiyat masalalari, milliy mentalitetning aks ettirilishi bilan uyg‘unligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

koreys va o‘zbek adabiyotida ayol obrazining ijtimoiy-estetik talqini aniqlangan va tizimlashtirilgan;

ayollar adabiyotining tarixi, XX asrda feminizm va uning badiiy adabiyotga ta’siri natijasida adabiyotda ayollar ijodkorligi fenomeni masalasi tahlil qilingan;

“ayollar adabiyoti” va uni o‘rganuvchi soha “ayollar adabiyotshunosligi” va uning taraqqiyot konsepsiyasi koreys va o‘zbek adabiyoti namoyondalari ijodi misolida individual uslub, mavzu va g‘oya mushtarakligi qiyosiy jihatdan aniqlangan;

“ayol” konsepti va uning mazmun-mohiyati Pak Van So va Oydin Sobirovalarning asarlari orqali yoritilib, yaxlit ayol qismati, qalbi, ruhiyatining evrilishlari keng tarzda ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi bo‘yicha e‘lon qilingan ma‘lumotlar va tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodlar va nazariy

ma'lumotlar ishning maqsadiga mosligi, ayol qalbi tasviri va talqinini yaratishda tahlilga tortilgan lirik asarlar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, keltirilgan fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi zamon koreys va o'zbek nasrida ayol obrazi, qalbi, ruhiyati tasviri talqiniga oid qarashlar, ilmiy muomalaga kiritilgan hamda nashr qilingan manbalar haqidagi nazariy xulosa va tavsiyalardan sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarni takomillashtirish, adabiyotshunoslik yo'nalishini yanada jadallashtirish, mavzuga oid tadqiqot va monografiyalar yaratish, adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalarini tadqiq etishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan "Badiiy matn tarjimasini", "Stilistika va matn tahlili", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Yozma tarjima", "Global adabiyot", "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti" fanlaridan innovatsion darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish, fakultativ darslar va maxsus kurslar ishlab chiqish, adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti kabi fanlar mazmunini nazariy xulosalar bilan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

ilmiy ishda o'zbek va koreys ijodkor ayollarining ilmiy biografiyasini yaratish, davr adabiy jarayoni rivojiga qo'shgan hissalarini aniqlash borasida bir qancha nazariyotchi olimlar qarashlariga munosabat bildirilgan. O'zbek va koreys ayollar adabiyoti mazmun va shakl jihatdan nihoyatda bir-biriga yaqin turishi, ularda ifodalangan ayol ruhiy olamining, qalb kechinmalarining o'ziga xos jihatlari "ayol" konseptini ifodalovchi birliklar orqali tahlilga tortilgan o'rinlardan 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024- yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-iyuldagi 1456/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, "ayollar adabiyoti" va "ayollar adabiyotshunosligi"ning mohiyatini yoritishda o'zbek va koreys folklorshunosligi janrlari tahlili orqali ayollar nasrining poetik xususiyatlari, ayol yozuvchilar ijodiyoti va ularning adabiyotdagi mavqei, asarlaridagi mavzu va g'oya doirasining mazmuni ochib berildi;

o'zbek va koreys ijodkor ayollarining ilmiy biografiyasini yaratish, davr adabiy jarayoni rivojiga qo'shgan hissalarini aniqlab, ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligi XX asr ilmiy voqeligi ekanligini, ayollar adabiyotining tarixi va nazariy jihatlari asoslashga doir qarashlaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan

Erasmus + dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-oktabrdagi 2376/02-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot ilmiy natijalarining qo‘llanilishi jahon adabiyotshunosligida ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligining bugungi kunda tizimli tadqiqot sifatida tadqiq etilayotganligi, yangi davr adabiyotida ayolga ayol ko‘zi bilan qarash yangi bosqichga ko‘tarilganligi aniqlandi;

ilmiy ishda “Ayol” konseptining mohiyatini yoritishda o‘zbek va koreys adibalari Oydin Sobirova va Pak Van Solarning asarlari tahlili orqali yoritilib, “axloqiy”, “hissiy” va “xan” konseptlarida ayol ruhiyatining nozik qirralari ko‘rsatilgan jihatlarini asoslashga doir qarashlaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-noyabrdagi 2528/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy o‘zbek va koreys feministik adabiyotining vakillari asarlarida ayol obrazining mohiyatini yoritish har ikkala millat ayollariga xos bo‘lgan mehribon ona, sabrli rafiqqa, oqila qiz kabi obrazlar Oydin Sobirovaning “Chaqaloqqa chakmoncha”, “Kelin o‘g‘il tug‘ipti”, Pak Van Soning “Sarob kapalagi” (“환각의 나비”) hikoyalari, “Ona iztirobi” (“엄마의 말뚝”) romani tahlili bilan asoslanildi;

ilmiy ishda keltirib o‘tilgan materiallardan O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil iyul oyida efirga uzatilgan “Ayol baxtli bo‘lsa”, Samarqand radiosining 2024-yil iyul oyi davomida “Xayrli kun” eshittirishining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-avgustdagi 01-07/217-son guvohnomasi). Natijada, “ayol” konseptining mohiyatini anglatishda o‘zbek va koreys adibalari Oydin Sobirovaning “Yuragida o‘ti bor”, “Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit” va Pak Van Soning “Qora beva” (“흑과부”), “Haliyam tush ko‘ryapsizmi?” (“그대 아직도 꿈꾸고 있는가”) hikoyalari tahlili orqali, “axloqiy”, “hissiy” va “xan” konseptlarida ayol ruhiyatining nozik qirralari oila, muhabbat va jamiyat masalalari, milliy mentalitetning aks ettirilishi shuningdek, kitobxonlikka qiziqishini yanada oshirish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro konferensiya va 2 ta Respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ma’ruza va tezislarda ko‘rinishida ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, xorijiy nufuzli jurnallarda 2 ta va boshqa mahalliy nashrlarda 7 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayollar adabiyotining tarixi va nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida koreys adabiyoti taraqqiyoti va uning bosqichlarini tasniflash, davrlashtirish jarayonida ijodiy metodlarning ustuvorligi, shuningdek, adabiyotshunoslikda feminizm va uning voqelanishi, ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligi va uning taraqqiyoti masalalari yoritilgan.

Har qanday xalq adabiyotini o'rganish adabiyot tarixini avvalo bosqichlarga ajratishdan boshlanadi. Koreys adabiyotshunosligida bu bosqichlar yarimorolda ilk davlatlar mavjudligi, so'ngra sulolalar hukmronligi davrlari bilan bog'lanadi. Tegishli ravishda koreys tadqiqotchilari uch yirik davr: uch davlat va Silla (X asrgacha), Koryo (X-XIV asrlar), va Choson (Li) (XIV va XIX asr boshi) davrlariga ajratadilar. Davrlashtirishning bu an'anaviy usuliga Rossiya sharqshunos-adabiyotshunoslari qarshi chiqmoqchi bo'lgan. XX asrning 60-yillarida bu mavzuda qizg'in bahs-munozaralar bo'lgan, lekin ular amalda samara bermagan. Har bir davr o'z ustuvor mavzularini ilgari surgan, adabiyot tarixida turli janrlarga moyillik bilan ajralib turgan. Masalan, Koryo sulolasi xitoy tilidagi tarixiy asarlar va she'riyat bilan, Li sulolasi esa – she'riyat va milliy nasr janrlarining rivojlanishi bilan dovuq taratgan. Har bir davrni sinchiklab tahlil qiladigan bo'lsak, ijodkor ayollarning davr adabiyotida mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha dolzarb masalalardan biri ayolning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki hisoblanadi. Ushbu jarayonda feminizm tushunchasi ham vujudga kelgan. Siyosiy lug'atlarda feminizm bu jinslar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va ijtimoiy tenglikni tashkil etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar va mafkuralar tizimidir⁴. XX asrdan boshlab jahon adabiyotida alohida tushuncha sifatida shakllana boshladi. Natijada jahon xalqlari adabiyoti namunalari ham feminizmni o'zida aks ettiruvchi asar va undagi obrazlar yaratildi.

XX asr o'rtalarida jahon feminizatsiyasi badiiy so'z san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va “ayollar adabiyoti” tushunchasini yuzaga chiqardi. “Ayollar

⁴ The Concise Encyclopedia of Sociology. John Wiley & Sons, 2010. – P. 223.; The Oxford Companion to Philosophy, 2nd, Oxford University Press, 2005. – P.291.

adabiyoti”ni o‘rganish, o‘z navbatida, “ayollar adabiyotshunosligi” terminologik konsepsiyasini yaratdi. Amerikalik adabiyotshunoslar “ayollar adabiyotshunosligi”da salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirishdi va aynan Amerika feministik adabiy tanqidi va adabiyotshunosligi dunyoda yetakchi mavqega ega bo‘ldi.

Amerikalik tadqiqotchilar fanga “ayollar adabiyoti” degan tushunchani olib kirishdi. Zero, XX asr o‘rtalariga kelib jahon feminizatsiyasi (feminizm – lotinchada sotsial va ijtimoiy faoliyatda ayollar huquqi uchun harakat) o‘z ta’sirini so‘z san’ati bo‘lmish adabiyotga ham o‘tkazayotgan edi. N.Beym 1978-yilda “Ayollar adabiyoti” nomli kitobini nashr qildi. N.Beym ayollar asarlarining o‘ziga xos tipologik xususiyatlarini kashf etdi. Yapon adabiyotshunoslari “Yaponiya ayollar adabiyoti”ni shakllantirgan adibalar ijodini o‘rganib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini, ayol ijodkorlarning qahramon obrazini yaratishdagi genderlik alomatlarini aniqladi. Y.Rumak mashhur yozuvchilar asarlarini tahlil qilib, ularda genetik jihatdan farqni ko‘rsatdi. Chunonchi, yapon adibalari asarlarini yaponcha yozuv (ideografik sillabik, ya’ni aralash yozuv) bilan, erkak yozuvchilar esa xitoycha yozuvda yozgan. Chunki o‘rta asrlarda Yaponiyada xitoy tili ilm-fan tili, rasmiy hujjat va olimlar tili deb hisoblangan. Murakkabligi bois xitoy tilini yapon ayollari o‘rgana olmaganlar⁵.

Koreyada feministik harakatlarning birinchi urinishlari XIX asrning ikkinchi yarmida inson tengligi g‘oyasini ilgari surgan nasroniy missionerlar tomonidan amalga oshirilgan. Insonlarning teng huquqliligi g‘oyalari keyinchalik “Koreya mustaqilligi uchun kurashda yetakchi kuchlardan biriga aylangan” tonxak (동학) ta’limotida ham o‘z ifodasini topgan⁶. Davlat suverenitetiga tashqi tahdidlar ta’sirida Mustaqillik jamiyati (동립협회) tuzilgan. Jamiyat a’zolari demokratik erkinliklarni talab qilish bilan bir qatorda “...ta’limni vatanning ilg‘or taraqqiyot yo‘li sifatida targ‘ib qilganlar”⁷, shu bilan birga ayollarning jamiyatdagi o‘rniga katta e’tibor berib, xotin-qizlar maktablari tarmog‘ini yaratish tarafdori bo‘lganlar. Biroq “o‘sha davr ta’lim tizimida tenglik talabi ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik uchun kurash darajasida bo‘lmagan”⁸.

Koreys adabiyotida mashhur bo‘lgan “Chunhyang haqida hikoya” (“춘향전”) asarida Chunhyang obrazi o‘ziga xos tarzda namoyon qilingan. Ayolning baxtga bo‘lgan huquqini isbotlash uchun u ko‘plab sinovlardan o‘tadi. Asarda “xan”, ya’ni “sabr-toqat” konsepti asosiy planda turadi. Sababi ayolning taqdiri mana shu sabr-toqat orqali namoyon bo‘ladi. Bu asarda ayol kamtarligi, mehnatkashligi uning hayot qiyinchiliklariga bo‘ysinishi bilan ifodalangan.

XX asrning 60-70-yillarida G‘arbda ko‘tarilgan feminizmning ikkinchi to‘lqini⁹ bir muncha vaqt o‘tgach, Janubiy Koreyaga ham yetib kelgan. Davlatni

⁵ Румак Ю.С. Факторы формирования гендерных образов в культуре Японии: Автореф. дисс ... канд. культурологи. – Саратов, 2010. – 23 с.

⁶ Курбанов С.О. Курс лекций по истории Кореи с древности до конца XX века. С-Пб, 2002. – С. 321-323.

⁷ Тягай Г.Д., Пак В.П. Национальная идея и просветительство в Корее в начале XX века. М., 1996. – С.11-12.

⁸ O‘sha asar. – B.192.

⁹ 김정자. 한국여성소설연구. 민지사. 서울, Kim Chonja. Koreys ayollar nasrining tadqiqotlari. 1991. – B. 18

sanoatlashtirish, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ishchilarni, jumladan, ayollarning kuchini ham talab qilgan. Bu davrda mehnat va talablar harakatining kuchayishi bilan bir qatorda ayollarning huquqlarini qo‘llab-quvvatlaydigan xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati ham rivojlangan. Shunga qaramay, Koreya jamiyati feminizm tarafdorlarining ovozigacha quloq solmagan. Feministik g‘oyalarning Koreya jamiyatining turli sohalariga kirib borishi 1980-yillarda ham davom etgan. Koreya Respublikasida obyektiv ravishda mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘shishi, fuqarolarning moddiy farovonligining o‘shishi bilan bog‘liq bosqichma-bosqich demokratlashtirish jarayoni boshlangan. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Mamlakatda G‘arb madaniyatining idrok etila boshlanishishi koreyslarning butun turmush tarziga ta‘sir qilgan. Koreyslar ijtimoiy erkinlikning qattiq chegaralanishida qolishni xohlamagan, har bir shaxs o‘ziga xosligini ko‘rsatish imkoniyatiga egaligini yoqlab chiqqan. Jamiyatda “ayollarning emansipatsiyasi” kabi yangi tushunchalar paydo bo‘lgan, erkaklar ustunligi mafkurasining qonuniyligi masalasi ko‘rib chiqila boshlangan. Ajralishlar sonining ko‘payishi davrning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ayollar imkoniyatlarini kengaytirishning oqibati deb hisoblanishi mumkin. Astasekin mamlakatda feministik harakat tobora ommalashib borgan. 1990-yillarda ayollar tashkilotlari harakatlari kuchaygan. 1998-yilda Koreya Respublikasida “Feminizm va koreys adabiyoti” ilmiy jamiyati tashkil etilgan. “Feminizm va koreys adabiyoti akademik jamiyati” bugungi kunda ham faoliyat olib bormoqda. Bu tamoyillar adabiyotning yanada rivojlanishiga, insonning ichki dunyosiga qaratilgan yangi asarlar yaratilishiga xizmat qilgan. Jarayonga ayollar katta hissa qo‘shgan.

O‘zbek va koreys madaniyatida ayollar adabiyoti va ayol obrazi haqida to‘xtalar ekanmiz, avvalo, muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda biri boshqasidan ustun qo‘yilmagan. Islom ta‘limoti ayol sha‘nini ulug‘laydi. Alloh taolo ayollarga ona bo‘lishdek sharafli va o‘ta mas‘uliyatli vazifani yuklagan. Ayol kishi avvalo, Ona sifatida qadrlanadi. Islom shariatida Alloh taoloning kalomida ilm talab qilish musulmonlarning erkag-u ayoliga tegishlidir. Hadisi sharifda “Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir”, – deyiladi.

Mumtoz ayollar tahlilida ham zuhd va taqvosini, ilm va farzand kamoli yo‘lida fidoiylik ko‘rsatgan bir qancha orifa ayollarni ko‘rishimiz mumkin. Tasavvuf ilmida so‘fiylar deyilganda ko‘proq erkaklar nazarda tutiladi, lekin bir qator asarlarda so‘fiy ayollar haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Ularning hayot yo‘li va taqvosini ibrat qilib ko‘rsatilgan. Ayniqsa bunday ayollar o‘zining taqvosini sababli erkaklardan ham baland darajada bo‘lgan. Musulmon sharqida chinakam e‘tiqodi va avliyolik sifatleri bilan diqqat qaratilishi zarur bo‘lgan ayollardan biri, shubhasiz, Robiya Adaviyadir. Bibi Robiyaning o‘zidan keyingi musulima ayollarga ta‘siri beqiyosdir. Uning shaxsiyati, tasavvufiy qarashlari, u haqdagi naqlar ko‘plab ayollarga ibrat va ilhom manbayi bo‘lib kelgan. Xotin-qizlarni ruhiy yuksaklikka chorlab o‘tgan. Farididdin Attorning “Tazkirat ul avliyo” asarida Bibi

Robiya haqida shunday deydi: “U xoslar guruhidan bo‘lgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga oshufta edi”. Olmoniyalik taniqli olima Annamariye Shimmel xonim “Jonon mening jonimda” nomli kitobida yozadi: “Islom jamiyatida eng katta hurmatga loyiq zot – ayol, aniqrog‘i, ona hisoblanadi. Bu hol payg‘ambar Muhammad (s.a.v) “Jannat – onalarning oyog‘i ostidadir”, – degan hadisi shariflarida ham yaqqol bayon etilgan. Islom dini nozil etilgan kundan boshlab hozirgi kungacha taqvodor, o‘qimishli va yolg‘iz Alloh taoloni sevguvchi ayollar bo‘lgan, bor va bo‘ladi”¹⁰. Bu hikoya orqali esa islom dini butun musulmon olamiga kirib kelganidan so‘ng, bunday so‘fiy va orifa ayollar juda ko‘p dunyoga keldi, lekin bunday ayollar ichida Robiya Adaviya shuhratga sazovor bo‘lib nomi tarixda muhrlanib qoldi.

Xalqimizning ham ko‘p ming yillik tarixida yurt ozodligi va tinchligi yo‘lida yuksak matonat va mardlik namunalarini ko‘rsatishgan ayollar fenomeni uchraydi. Ayol bo‘lishiga qaramay malika To‘maris vatan uchun jangga kirib bosqinchilarni tor-mor qilgani, kuchli aql-idroki va botirligi bilan dushman qo‘shinlariga qaqqshatqich zarbalar berib, ozodlik va mustaqillikni himoya qilib, yuksak mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatganligi bizda cheksiz g‘urur, faxr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Shuningdek, tarixda vatanparvarlik namunasi sifatida nom qoldirgan Qurbonjon dodxoh tarixi yoshlar uchun ibratdir.

Besh asr muqaddam buyuk Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida yetti olinga dono maslahatchi hisoblangan, podshoh Iskandarning onasi Bonu timsolini yaratgan:

Ki: “Bonuki davrondin ogoh erur,
Bilik ichra davr ahlig‘a shoh erur”¹¹.

Shuningdek, jadid adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma‘rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojisizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi.

Janubiy Koreya adabiyotida xotin-qizlar nasri alohida o‘rin tutadi, uning o‘z tarixi bo‘lib, taraqqiyoti uzoq davrlarni qamrab oladi. Afsuski, O‘zbekistonda koreysshunoslikka haligacha e‘tibor yetarlicha berilmagan. Hattoki o‘zbek va koreys xalq og‘zaki ijodi janrlaridan, jumladan, maqol, topishmoq, to‘rtlik, qo‘shiq kabi janrlar mohiyatiga teranroq razm soladigan bo‘lsak, bu janrlarda genderlik masalasining yorqin namunasini uchratishimiz mumkin.

Turli til maqollarini qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi. Bu janrlarda koreyadagi tabaqalanish holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Maqollar xalq hayotini aks ettirgani uchun ularda nafrat ham bo‘lishi, tabiiy. Maqollarda asosan, qayg‘u, ayollarning noroziligi, faqirligi ifodalangan. Jumladan:

¹⁰ Fotimaxon Sulaymon qori qizi. Ayol mukarramdir. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 14-16.

¹¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. Садди Искандарий. – Тошкент, 1986. – Б. 386.

| Ayol shaxsi tomonidan aytiladigan maqollar | |
|---|--|
| Koreys tilidagi maqol | O‘zbek tilidagi izohi |
| 여자가 한을 품으면 오뉴월에도 서리가 내린다. | <i>Ayolning g‘azabi kelsa har faslda ham qirov tushadi.</i> |
| 시집 가서는 귀머거리 3 년이요, 병어리 3 년이라. | <i>Turmushga chiqqaningda uch yil kar, uch yil soqov bo‘l deyishadi.</i> |
| 아이가 셋이면 석 자 가시가 걸리지 않는다. | <i>Uchta bola bor uyda onaga yegani tikan ham tegmas.</i> |
| 자식을 보기 전에 어머니를 보랬다. | <i>Bolasini ko‘rishdan oldin onasini ko‘r (Onasini ko‘rib qizini ol).</i> |
| 둘째 며느리 삼아 보아야 맏며느리 착한 줄 안다. | <i>Ikkinchi kelinni olgandan keyin birinchisining yaxshiligini bilasan (Yomoni ko‘rmaguncha yaxshini qadriga yetmaysan).</i> |

Koreys va o‘zbek xalq maqollarini birlashtirib turadigan bir muhim jihat mavjud. Bu – tarbiya masalasidir. Har ikkala xalq maqollarida ham oila muqaddas ekanligi, unda ota-ona muhim ustun bo‘lib hisoblanishi, farzand tarbiyasi eng ulug‘ qadriyat sifatida talqin qilinadi.

Ayol nasri shakllanishining xronologik tadqiqotini o‘tkazar ekanmiz, uning eng muhim bosqichlarini Koreyada, 1945-yildan keyin esa Koreya Respublikasida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Shunisi e‘tiborga loyiqki, eng qadimgi koreys she‘riy asari “Sevgilim, daryodan o‘tma!” (“임이여, 물을 건너지 마오”) xanmun matni hisoblanadi. Bu qo‘shiq qadimgi Choson davrida turmush o‘rtog‘ining ikki marta o‘z joniga qasd qilishi haqidagi hikoya asosida vujudga kelgan. Koreya adabiyotiga e‘tibor qaratilsa, unda hatto XV asrdayoq faqat ayollarga xos bo‘lgan janr “amkil” (“ayol xati”) yuzaga keladi. Bu ham mumtoz adabiyot namunalari ayollarning ijodkorligidan dalolat beradi. Umuman, Koreya adabiyotida qirolichalar ham ijod bilan mashg‘ul bo‘lganligi ayni haqiqatdir. Qirol Sindjonning onasi qirolicha Soxe (소혜왕후, 1437-1504) “Ayollarga nasihat” (“내훈”) asarini yaratgan. Bu asar koreyadagi ilk ayol ijodkorligi edi. U Konfutsiy ta‘limoti asosida ayollarga she‘riy yo‘l bilan o‘z maslahatlarini berishga intilgan. Xuddi shunday o‘zbek adabiyotida ham saroylarda shoir va shoiralarning mushoralari bo‘lganligini, aynan bunga podshohlar ham rag‘bat uyg‘otganligini alohida ta‘kidlamok kerak. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning opasi Xonzodabegim, qizi Gulbadanbegim yoki Amir Umarxonning rafiqasi Nodirabegimlarning ijodi va ularning ayol shoiralarga bo‘lgan rag‘bati fikrimizni tasdiqlaydi.

Xullas, ayollar adabiyoti bu keng tushuncha bo‘lib, uning mohiyatini ayollar adabiyotshunosligi bilan tekshirish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va koreys adabiyotida ayollar adabiyoti mavjud va u uzoq tarixga ega. Biz ayollar adabiyotini ayollar adabiyotshunosligi mezonlari bilan taqqoslasak, ayollar

adabiyotshunosligi endi shakllanayotgan soha ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

“Oydin Sobirova va Pak Van So badiiy olami” deb nomlangan ikkinchi bobda koreys va o'zbek adibalari – Pak Van So va Oydin Sobirovalarning badiiy nasrida ayollar obrazi, ularning qalb kechinmasi tasviri haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

XX asr o'zbek xotin-qizlari orasida birinchi bo'lib yetishib chiqqan mohir hikoyanavis Oydin (Manzura Sobirova) o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin egallaydi. Oydin yangi davr o'zbek yozuvchilarining birinchi avlodiga mansub. U adabiyot maydoniga 20-yillarda Oybek, G'.G'ulom, Uyg'un, A.Qahhor, K.Yashin, Mirtemir kabi ijodkorlar bilan bir qatorda kirib keldi.

Ayol yozuvchilar deyarli bo'lmaganligi sababli Oydin dastlabki vaqtlarda adabiyot maydonida yolg'iz edi. Oydinning eng katta xizmati shundaki, u yangi o'zbek adabiyotida xotin-qiz yozuvchilar safining boshida turdi. Davr talablariga hozirjavoblik, xususan, xotin-qizlarning “to'rt devor ichida za'faron bo'lib o'tirishni bas qilishga” (Oydin), ularni qaynoq ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga chaqirish – adiba ijodining asosiy ma'nosini tashkil etadi¹².

Oydinning 20-yillar o'rtalaridan to 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo'lgan ijodi, asosan, she'riyatga bag'ishlangan. Bu davrda shoira anchagina she'rlar va dostonlar yozib, “Tong qo'shig'i”, “Chechan qo'llar”, “Oydin she'rlari” to'plamlarini o'quvchilarga taqdim etdi.

Oydin 30-yillarning oxirlariga kelib, deyarli butunlay hikoya janriga o'tib oldi. “Gulsanam”, “Hazil emish”, “Yamoqchi ko'chdi”, “Sadag'ang bo'lay komandir”, “Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit” singari rang-barang hikoyalar yozib, mohir hikoyanavis sifatida tanildi.

Xotin-qizlar hayotini tasvirlash, ularning jonli obrazlarini yaratish adiba hikoyachiligining (umuman ijodining) diqqat markazida turadi. Ana shunga ko'ra Oydin ijodini o'zbek xotin-qizlari hayotining badiiy tarixi, o'ziga xos yilnomasi desa xato bo'lmaydi. Oydin nafaqat ijodi bilan, balki shaxsiy fazilatlarini bilan ham davr ayollariga o'rnak bo'la oldi, adabiy merosi bilan turtki bera oldi.

Oydin xotin-qizlar obrazini yaratish orqali hayot haqiqatini ochib berish tamoyiliga urushdan so'nggi davrda ham sodiq bo'lib qoldi. “Mardlik – manguilik”, “Hikoya va ocherklar”, “Hikoyalar” singari kitoblari ana shundan dalolat beradi. Bu kitoblarda adiba sodda, mehribon, itoatli, sabr-toqatli, sadoqatli o'zbek ayolini, o'zbek onasinihg obrazini yaratib bera olgan. Hikoyalarda bosh qahramon davr onasi, ayoli, qizi sifatida tasvirlanadi. Tasvirlarda ayollarning ilm-ma'rifatga intilayotgan holati, ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining yemirilishiga sabab bo'lishi asos sifatida tanlangan.

Ijodkorning “Hikoyalar” kitobiga kiritilgan “Chaqaloqqa chakmoncha” kitobida davr qiyofasi va ayollar qismati yoritilgan. Mazkur hikoyada ijodkor ayollarning fojiali taqdiri orqali davr ijtimoiy muhitini ochib bergan. Hikoya bosh qahramoni Erqo'ziyeva bo'lib, u kolxozda faol ishchi. Yoshligidan mehnatda

¹² Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 210.

toblangan bu qiz voyaga yetib, o'ziga munosib yigitga turmushga chiqadi. Lekin uning bir emas, ikki emas, to'rt farzandi tug'ilganidayoq nobud bo'ladi. Tug'uruqxonada emas, uyida qo'shni kampirlarning yordamida dunyoga keltirgan farzandlarining nobud bo'lishi Erqo'ziyevani tushkun ahvolga soladi. Kampirlar unga bolasining yashab ketishi uchun har xil maslahatlar berishadi. Jumladan, "Bolangga aks tegadi. Jinlar changal soladi. Uch marta qora tovuqni quchoqlab qoqtirgin, chillayosin qildirgin, ukki asrab, tug'adigan chog'ingda bosh tomoningga o'tqizib qo'ygin. Jinlar ukkinging ko'zidan qo'rqadi, – deb qo'yarda-qo'ymadilar. Bisotida bittagina gunafsha duxoba kamzuli bor edi, shuni sotib haligilarning hammasini qildi. Lekin bu bolasi ham o'lik tushdi"¹³. Chunki bunday fojiali qismatning qayta-qayta takrorlanishiga davr ayollarining ilmsizligi sabab edi. Shifoxonaga borishsa odamlar gap qiladi, – deydi hikoyada. Erqo'ziyevaning turmush o'rtog'i bu kampirlaring nimani biladi, endigi farzandimizni shifoxonada dunyoga keltirasan, deganda ayoli:

– *Gap-so'zga qolamiz "doktorxonada tug'ibdi", deb hammayoqda duv-duv gap bo'lib o'lar.*

– *Gap bo'lsak, bo'larmiz. Ish-qilib bola omon bo'lsin! Bu ham bir tavakkalde, – deb sakrab o'rnidan turdi. Osh-oshda qoldi, boshqa-boshqada. Erxotin o'tlanishib chiqib ketdilar"*¹⁴. Ular to'g'ri tanlov qilishgan edi. Erqo'ziyeva doktorxonaga borib farzandini dunyoga keltirgani uchun to'rt muchasi sog'lom bolani dunyoga keltiradi. Bu kabi taqdirlar orqali ijodkor davr ruhini ochib bera olgan. Sababi o'sha davrda Erqo'ziyeva singari qancha-qancha ayollar tug'uruqxonaga bormasdan, uylarida ilmsiz tibbiyot yordamida farzandlarini nobud qilishayotgan edi. Kampir doylar yordamida qilinayotgan tug'uruq jarayonidagi noto'g'ri xatti-harakatlar bolaning yoki onaning nobud bo'lishi bilan yakunlanayotgan edi. Aynan mana shu hikoyadagi tasvirlarga yuqoridagi fojiviy holatlar mujassam.

Oydin Sobirova singari koreys adibasi Pak Van So nasrida ham ayol obrazi asosiy planda turadi. Pak Van So (1931-2011) Koreyaning Kyonggi-do provinsiyasidagi Gepung shahrida tug'ilgan. 1970-yilda Pak Van So 40 yoshga to'lganida "Sharqiy Osiyo ayoli" nomli ayollar o'rtasidagi roman yozish tanlovida "나목" ("Yalang'och daraxt") nomli romani orqali tanilib, adabiyot olamiga kirib keldi. Shundan so'ng Pak Van So Koreyaning adabiyotshunoslik olamida tanilgan yozuvchisiga aylanib urush davridagi zulm, bo'linish masalalari, ayollarga nisbatan zulmni, ayollarga jamiyatda past nazar bilan qarashni tanqid ostiga olgan asarlar yozdi. Ijodkor kitoblarida ayollarning orzusini, intilishlarini, zahmatini, mehnatini aks ettirdi. U 1970-yillardan boshlab vafot etganiga qadar, 40 yil davomida 15 ta roman, 100 dan ortiq novella, 13 jildli ocherk va 4 jildli ertaklar kitobini yaratgan va mashhur yozuvchiga aylangan. Pak Van Soning "엄마의 말뚝" ("Ona iztirobi") asarida urush tajribasi, ayollar ongi, ona-qiz munosabatlari, ayollar ta'limi haqidagi voqealar aks etgan. Bu asarda Pak Van Soning o'ziga xos yozish

¹³ Ойдин. Ҳикоялар. – Тошкент, 1954. – Б. 4.

¹⁴ Ойдин. Ҳикоялар. – Тошкент, 1954. – Б. 5.

uslub va o'sha davrdagi tajribalari turli nuqtayi nazardan ko'rsatilgan. Pak Van So asarlari nafaqat Koreyada, balki boshqa davlatlarda ham obro' qozongan. Mustamlakachilik davri va Koreya urushi davridagi zamonaviy tajribalari uning romani ijodining o'ziga xos elementi hisoblanadi. Ijodkorning asarlari Yapon mustamlakachilik davri oxirida o'z ona shahrini yo'qotish tajribasi haqidadir. Xususan, Pak Van Soning asarlari bir shaxsning "tarixi" yoki "tajribalari" orqali bir davrning hayotini tasvirlaydi.

Shuningdek, Pak Van So "Koreya yozuvchisi" mukofoti, "Li San adabiyoti" mukofoti va Koreya Respublikasi adabiy mukofotiga sazovor bo'lgan. Ko'plab olimlar Pak Van So badiiy merosini o'rganganlarida ularning aksariyati ayollar nuqtayi nazaridan o'rganishgan. Pak Van Soning "Ona iztirobi-1,2,3" ("엄마의 말뚝 1,2,3") asarlarida ona asosiy obraz va uning qizi ham muhim shaxs sifatida gavdalangan. "Ona iztirobi" ("엄마의 말뚝") asarida yozuvchi 10 yil davomida boshidan kechirganlarini tasvirlab, bu asarda uning bolaligidan onasi vafotigacha bo'lgan barcha kechinmalari o'z aksini topgan. Bu asar avtobiografik roman hisoblanadi. Urush tufayli yurakdagi iztiroblari chuqurligi, shaxsiy hamda milliy fojia bo'lgan bo'linish davri dardini shu asar ichida namoyon qilgan. "Ona iztirobi" ("엄마의 말뚝") asarida "men" ona tufayli shaharga ko'chib o'tgandan keyin boshidan kechirgan qiyinchilik va qarama-qarshilik his-tuyg'ularini tasvirlaydi. Asarda urush va uning yaralari, g'oliblik va mag'lublik masalalari ko'rib chiqilgan. Asarda otaning yo'qligi, akaning vafot etganligi tufayli oilada erkakning, ya'ni oila boshining yo'qligi zamonaviy Koreya tarixining aksi bo'lib, onaga qaratilgan oila tarixi Pak Van So ijodining xususiyatlaridan biri sanaladi.

1970-yildan boshlab ijodkor asarlari muxlislarining soni orta boshladi. Pak Van So 1980-yillardan adabiy tanqidchilar nigohiga tushgan ijodkor sifatida tanildi. 1990-yillardan boshlab uning ijodi bo'yicha ijobiy tadqiqotlar, maqolalar, dissertatsiyalar yozila boshladi. Tadqiqotlar asosan tematik va rasmiy jihatlarda olib borilgan. Mavjud tadqiqotlarga nazar tashlasak, ayol kechinmasi, his-tuyg'usi, ruhiyatidagi evrilishlar Koreyadagi siyosiy vaziyat va bo'linishlar, hayot va insoniyatni hurmat qilish, feminizm istiqbollari haqida, ona-qiz munosabatlari va oiladagi muammolar kabilarda namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotchilarning tadqiqotlarining mohiyatidan kelib chiqib, Pak Van So ijodi haqidagi tadqiqotlarni besh guruhga bo'lib chiqish mumkin:

1. Oilaviy munosabatlar, ona va qiz mavzusidagi tadqiqotlar. Pak Van Soning "엄마의 말뚝" ("Ona iztirobi") asarida otaning yo'qligi sababli paydo bo'ladigan oiladagi o'zgarishlar, ona va bola munosabatlaridagi o'zgarishlar Koreya jamiyati va tarixining qorong'u tomonlariga o'xshatiladi. Romanda ona farzandi, ya'ni qizining ta'lim-tarbiya olishi uchun kurashishi, bunga jamiyatdagi ayrim holatlarning to'sqinlik qilishi kabilarni tanqid qilgan. Bu haqida Kvak In Kyong "Pak Van So ijodida oilaviy munosabatlarning eng asosiysi – insoniy munosabatlardir. Ijodkor asarlari orqali oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni bartaraf etish yo'llarini kitobxonga taqdim etadi. Oilaviy muammolar

kelajakda ijtimoiy muammolarga olib keladi”¹⁵, – deb qayd qiladi. Pyon Xe Yong Pak Van So romanlaridagi oilaviy munosabatlarni ona-qiz va nikoh munosabatlariga bo‘lish orqali o‘rganadi¹⁶. Kvon Myong Pak Van So romanlarini tarix davomida yo‘qolgan “milliy qadriyatlarni tiklash” yoki “barqaror oila” g‘oyasini hayotga tatbiq etilishi oilaning muqaddaslashtirilayotganini, shu bilan birga o‘ziga xoslik, xudbinlikka aylanib borayotganini ko‘rsatgan¹⁷. Kim Bong Sun “Pak Van So zamonning asosiy muammolari bilan bog‘liq ijtimoiy ziddiyatlarni romanlar orqali hal qilar ekan, oila hamisha muammoning markazida turadi va badiiy asarlar uchun asosiy mavzu sanaladi. Shuning uchun unda nafaqat oilaning parchalanishi, balki oilaning parchalanishiga sabab bo‘lgan hodisalar ham tasvirlangan”¹⁸, – deb o‘z qarashlarini bayon qiladi.

2. “Koreya urushi” mavzusidagi tadqiqotlar. Mana shu doirada ham aynan Pak Van So o‘z badiiy asarlari orqali javob bergan. Ijodkorning “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) asarida aynan urush tasviri, shuning bilan birga Koreyadagi bu holatning inson ongu shuuriga ta’siri o‘z ifodasini topgan tadqiqotlar yaratilgan. Bu holatlarni tadqiqotchilar ijodkorning “나목” (“Yalang‘och daraxt”) va “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) asarlari orqali tahlil qiladi. Pak Van So asarlarida ayol obrazi ko‘pincha urush bilan bog‘liq. Pak Van So nafaqat urushni tasvirlaydi, balki ayollarning urushdagi siymolari orqali urushni batafsil tasvirlaydi. Kim Yun Shik Pak Van Soni maqtab uni “eng yuqori raqobat darajasiga” erishganini aytdi. U Pak Van So asarlarini urush davridagi vaziyatni “xotira va tavsif” bilan yaxshi tasvirlaganini aytadi¹⁹. Pak Xe Rim “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”), “그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까” (“Shuncha shingani kim yegan?”), “그 산이 정말 거기 있었을까?” (“Tog‘ chindan ham o‘sha yerda bo‘lganmi?”) kabi Pak Van So asarlarining adabiy potensialiga e’tibor qaratib o‘rganib chiqdi²⁰. Song Bong In “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) romanini tahlil qilib, urush tufayli azob chekayotgan ona, urush zo‘ravonligi tufayli insonlarning kundalik hayotini sababsiz barbod qilishini turmush o‘rtog‘i va qizi timsollari orqali ko‘rganini, ayriliq og‘rig‘i bedavoligini, bu jarayonda ruhiy holatdagi jarahotlar tuzalmasligini ta’kidlaydi²¹.

3. Asar tuzilishini (kompozitsiya) o‘rganish. Asar tuzilishini – kompozitsiyasini tahlil qilgan koreys adabiyotshunosligida dissertatsiyalar ham mavjud. Be Kyong Yol “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”)da personajlar, voqealar orqali strukturaviy estetikani tahlil qilgan. “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) asarining birinchi va ikkinchi qismlarining tuzilishi, mavzu va ifoda o‘rtasidagi bog‘liqlikka

¹⁵ [곽은경.(2001).박완서 소설에 나타난 가족관계의 양상. 「건국대학교 일반대학원」.22-99.서울:건국대학교].

¹⁶ [편행영.(2005).박완서 가족소설 연구. 「한양대학교 일반대학원」.19-54. 서울:한양대학교].

¹⁷ 권명아. (1994). 박완서 문학연구 역적 모성의 이중성과 딸의 세계의 의미를 중심으로. 「작가세계」,11(3), 57-60.

¹⁸ 김봉순.(2005).박완서 소설에 나타난 가족의 해체와 대안. 「대전대학교」.21-65. 대전:대전대학교.

¹⁹ 김윤식.(1988).천의부봉과 대중성의 근거,「문학사상」,1(3),143-162.

²⁰ 박혜림.(2012).박완서 소설의 문학치유 가능성 고찰.전쟁체험 소개의 소설을 중심으로. 「경희대학교 일반대학원」.9-77.서울:경희대학교.

²¹ 송봉은. (2007). 한국전후소설의 트라우마 양상 연구. 「고려대학교일반대학원」.45-103.서울:고려대학교.

asoslangan. U romanning muvaffaqiyat qozonishining asosiy yutug'i deb, tasviriylik va ruhiy holatni tasvirlar orqali ochib berilishida²², deb hisoblagan.

4. *Ayollar ta'limi bo'yicha tadqiqotlar.* Ma'lumki, koreya fan ta'limida ayollar ta'limiga bag'ishlangan tadqiqotlar talaygina. Kim Yong Xvan romanlarda ayollar ta'lim-tarbiyasi haqidagi qarashlarini Kim Van Soning “장마” (“Yomg'ir mavsumi”) va “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) romanlarini qiyoslab o'rganish orqali ochib beradi.

5. *Feminizm va ayollar adabiyotini o'rganish haqida tadqiqotlar.* Pak Van So asarlarida feministik nuqtayi nazardan yondashish haqida ko'p muhokamalar bo'lib o'tgan. Pak Van So sermahsul yozuvchi, uning ijodida jamiyatdagi barcha muammolarga javob topish mumkin. Ijodkorning “서 있는 여자” (“Tik turgan qiz”), “그대 아직도 꿈꾸고 있는가” (“Hali ham tush ko'ryapsizmi?”), “살아 있는 날의 시작” (“Yashab qolgan kunning boshlanishi”) asarlari misolida ayollar adabiyoti keng yoritib berilgan. Kim Ji In Pak Van So romanlarida ekofeminizm tendensiyasini ko'rsatadi va mavjud feminizmdan bir qadam oldinga boradi, bunda ayollar erkaklarning shaxsiy huquqlariga ega bo'ladilar va patriarxiya sharoitida ezilgan vaziyatlarda teng munosabatlarni tiklaydilar deb ta'kidlaydi²³. Zamonaviy Koreya jamiyatida ayollar patriarxat va kapitalizm tufayli ezilgan. Pak Van So asarlarida bunday holatni hal qilish uchun zamonaviy paradigmani o'zgartirishga turtki bo'ldi. Feminizm yo'nalishidagi turli asarlarni tushuntirish orqali ayollarning qadri-qimmatining pasayganini ko'rish mumkin²⁴. Cho Yun Hi feminizmni “Ayollar ozodligi deb talqin qilinadi”, deb hisoblaydi. Pak Van So asarlari orqali patriarxatning ayollarga qanday ta'siri, ayollarning erki va jamiyatdagi o'rni masalasini ta'kidlaydi²⁵. Pak So Yong yozuvchining ayol ekanligi va u ayollar hissiyotini bemalol o'zida his qilib tasvirlashini, uning romanlarini feministik roman deb tan olishini bayon qiladi. Pak So Yong Pak Van Soning feministik asarlarini o'qib ayollarning dunyoqarashini o'rgandi va real tasvirlar orqali o'z-o'zini anglashi haqida o'z maqolalarini²⁶ e'lon qilgan.

Tahlil qilingan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Pak Van So ijodi koreys adabiyotshunosligida keng tarzda o'rganilmoqda. Ijodkorning asarlari yangi-yangi tadqiqotlar uchun ham obyekt bo'la oladi. O'rganilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida ayol obrazi, ayol kechinmasi bilan bog'liq jarayonlar ijtimoiy muhit bilan chambarchas tarzda tadqiq qilingan.

Xullas, koreys adibasi Pak Van So o'z hikoyalari, qissalari, ocherk va romanlari bilan erkka, ozodlikka intilgan koreys ayollarining qismatini yoritib

²² 배경열. (1995). 中间소설의 구조美学:엄마의 말뚝 1,2 를 중심으로, 문학과 意义, 「문학과 의식사」, 봄호(3), 86-89.

²³ [김지은. (2013). 박완서 소설의 페미니즘 특성연구, 「한국교원대학교 일반대학원」. 12-59. 청주: 한국교원 대학교].

²⁴ 방혜은. (2018). 박완서 소설에 나타난 생태여성주의 연구: 박완서 단편소설 중심으로. 「한국교원대학교 대학원」. 18-67. 청주: 한국교원대학교

²⁵ 조윤희. (2002). 박완서의 페미니즘 소설연구. 「명지대학교 일반대학원」. 12-66. 서울: 명지대학교

²⁶ 박소영. (2008). 박완서의 70 년대 단편소설 연구: 여성의 정체성 형성을 중심으로. 「목포대학교 교육대학원」. 23-96. 전라남도: 목포대학교.

bergan. Ijodkor asarlarida koreys ayollarining erksizligi, ularning jamiyatda o‘z o‘rniga ega emasligi qattiq tanqid qilinadi. Uning qahramoni ayol. U ona, opa, singil, yor. Pak Van So asarlarida uning o‘z “meni” yashaydi. Mana shu “men” bashariyati ayollarining dardi bilan uyg‘unlashib ketganki, bugun ham minglab dunyo kitobxonlari ijodkor asarlariga talpinadi. Ularda erk, ozodlik, ayol erki, ayol ozodligi tasvirlanadi. Ilk zamonaviy dunyo ayoli obrazi tasvirni badiiy obrazlarda yashata oldi. Bu esa minglab uxlagan qalblarni uyg‘otdi. Minglab dunyo ayollarini jamiyat taraqqiyotida, oila farovonligida faol bo‘lishga da‘vat etdi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ayollar nasrining poetik xususiyatlari**” deb nomlanib, bu bobda ruhiy holat va kechinmalar tasviri, shuning bilan birga Oydin Sobirova va Pak Van So asarlarida ayol obrazining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Jahon adabiyotshunosligida ayol obrazi, ruhiy holati masalasi keng tadqiq etilgan mavzular sirasiga kiradi. Boshqa mamlakat adabiy muhitining vakili ijodini o‘zbek adabiyoti vakili ijodi bilan qiyosiy o‘rganish va tadqiq etish millatlar va urf-odatlardagi mushtaraklik va o‘ziga xoslikni ularning asarlari misolida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki xalq adabiy-madaniy muhiti ularning adabiy durdonalari orqali yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Pak Van So va Oydin Sobirova ikkalasi ham o‘z mamlakatlari adabiy doiralarida, ayniqsa ayollar adabiyotida muhim o‘rinlarni egallagan ijodkorlardandir. Ikki muallifning badiiy olamida juda ko‘p o‘xshashliklar mavjud. Ikkala yozuvchi ham ayollar hayotini, ularning qalb kechinmalarini poetik aks ettiradi. Ularning asarlarida ayol – millat tarbiyachisi, jamiyat rivojida beqiyos hurmatga, e‘tiborga ega inson sifatida tasvirlanadi. Shuning bilan birga ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy aloqalarning mustahkamligi, ularning sharqona tarbiyasidagi mushtarak jihatlar adabiy asarlarining mohiyatiga singdirib yuborilgan.

Jumladan, o‘zbek va koreys ayollarida farzand dunyoga keltirish holati va uning ikki ijodkor asarlarida voqelanishi davr ijtimoiy muhiti va ayol ruhiyatini yoritishda muhim sanalishi tahlillar orqali yanada mukammallashadi.

Oydin Sobirovaning “Chaqaloqqa chakmancha”, “Kelin o‘g‘il tug‘ipti”, Pak Van Soning “Sarob kapalak” hikoyalarda aynan ayollarning ona bo‘lish holatlari tasvirlanadi. Oydin Sobirovaning “Chaqaloqqa chakmancha” hikoyasida Erqo‘ziyevaning farzandini dunyoga keltirish jarayonida ularning nobud bo‘lishi tasvirlanadi. *“Ayniqsa, beshinchi marta tug‘ishdagi qiynalishlar kampirning “ha bo‘laqol, mana tushdi-tushdi”, deb qornining boshidan ezishlari, ko‘rpage yotqizib, u yoqdan-buyoqqa yumalatislari, og‘ziga soch tiqib o‘qchitishlari esiga tushib yuragi duk-duk ura boshladi. Ming azob bilan tuqqan bolasining paxtadek bo‘lib, oyoq-qo‘llarini shalviratib, cho‘zilib yotishi ko‘ziga ko‘rinib ketdi”*²⁷. Hikoyada ijodkor ayol qadrini, insonlarning dunyoqarashi, shifoxonaga ayol kishining borib farzand dunyoga keltirishi uyat sanalishi orqali davr muhitini

²⁷ Ойдин. Ҳикоялар. – Тошкент, 1954. – Б. 72.

namoyon qilmoqda. Pak Van Soning “환각의 나비” (“Sarob kapalak”) hikoyasida Yonju obrazi va hayot tarzi tasvirlanadi: “영주의 어머니는 영주를 낳은 지 십년 넘어 아이를 못 갖다가 영숙을 낳았고 막내 영탁을 낳았다. 영탁과 영주의 나이 차이는 열세살이었다. 영탁은 유복자였고 아버지의 유산은 집 한채가 다였다. 어머니는 하숙을 쳤고 영주는 그런 어머니를 도와 생계를 꾸려가는데 손을 보탰다”²⁸. (“*Yonju onasi Yonjuni tuqqanidan so‘ng 10 yil ortiq vaqt mobaynida farzand ko‘ra olmadi va keyin Yonsukni, undan keyin kenja farzandi Yontakni tug‘di. Yontak va Yonjuning o‘rtasidagi yoshining farqi o‘n uch yil edi. Yontak dadasi vafotidan keyin tug‘ilgan bo‘lib dadasidan qolgan uy uning merosi edi. Onasi pansionat ochib Yonju unga tirikchilikka yordam berar edi. – tarjima o‘zimizniki*”). Har ikkala hikoyada ayol qismati, uning farzand dunyoga keltirish va uni tarbiyalab kamolga yetkazish jarayoni tasvirlanadi.

Shuningdek, Oydin Sobirova va Pak Van So asarlarida “ayol” konseptining qiyosiy tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, “ayol” konsepti milliy ongning eng muhim hodisalaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. “Ayol” konsepti jinsiy, oilaviy, ijtimoiy, axloqiy, estetik va boshqa vazifalar asosida shakllangan, jamiyat tomonidan belgilangan fazilatlar va xususiyatlarning tashuvchisi sifatida ayol haqidagi turg‘un g‘oyalarning ifodasidir. O‘zbek va koreys tillarining izohli lug‘atlarida “ayol” tushunchasining lug‘at ta‘riflarini tarkibiy tahlil qilish usulidan foydalangan holda so‘zlarning asosiy qismining semantik tuzilishidagi o‘xshashliklarni aniqlashga erishdik.

Jahon adabiyoti namoyandalaridan, o‘zbek shoirasi va yozuvchisi Oydin Sobirova hamda koreys adibasi Pak Van Solarning badiiy nasri o‘zining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. O‘zbek madaniyatining eng muhim konseptlari Oydin Sobirova ijodida yorqin aks etgan. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat nuqtayi nazaridan Pak Van So ijodiyoti ham konseptlarning lingvomadaniy makonning markerlari sifatida ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois ikkala so‘z san’atkorining badiiy nasrida eng muhim konseptlarni aniqlab adabiy va madaniy an’analar uchun ahamiyatini hisobga olgan holda qiyosiy o‘rganish va ochib berish maqsadga muvofiq.

Biz tadqiqot obyektimiz bo‘lgan ijodkorlarning asarlarida konsept va ularning ifodalanishini, ayol konseptining voqelanishini V.A.Maslovaning tasnifi asosida o‘rganishni lozim topdik. V.A.Maslova konseptlarni yetti turga bo‘lib tasnif qiladi. Biz tadqiqotimizda “ayol” konseptini ifodalashda faol qo‘llanadigan konseptlarning ayrimlarinigina ko‘rib chiqamiz.

Axloqiy konseptlar (haqiqat, uyat, baxt, gunoh...). Bu konsept har bir ijodkor badiiy manerasini belgilaydi. Chunki adabiy asarda adabiyot tarixidan ma’lumki, uning bosh maqsadi komil insonni tarbiyalash, yomonlik ustidan yaxshilikning g‘alaba qozonishi, zulmatni yorug‘lik zabt etishi kabilar mavjud. Har ikkala ijodkor – Oydin Sobirova va Pak Van So ijodida eng unumli va mukammal tasvirlangan konsept – axloqiy konseptlardir. Oydinning “Yuragida o‘ti bor”, “Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit”, “Uyaldi shekilli, yerga qaradi” kabi hikoyalarining asosida ayol

²⁸ 너무도 쓸쓸한 당신, 박완서 (지은이) 창비 1998-12-15 초판출간 1998 년.

konseptining o‘ziga xos tarzda voqelanishiga guvoh bo‘lamiz. Ayol, eng avvalo, haqiqat tarafdori, go‘zallik va baxt tarafdori bo‘lgan siymo. Adibaning “Uyaldi shekilli, yerga qaradi” hikoyasida Fotima opaning qilgan nohaqliklari, xodimlarini doimo izza qilib uyaltirishlari, hattoki ularning o‘ziga qarata aytgan kamsitishlarida biz buning teskarisini ko‘rishimiz mumkin: “Senga bir ish topshirishga ham yuragim qolmadi; so‘rayberib, tinkani quritan. Essiz senga berilgan pul, ko‘chada hamollik qilishing kerak. Tag‘in menga yordamchi emish – yoniga qarab – tfuv... – dedi. Yigit xatdan boshini ko‘tarmadi, stolga tiralganicha, juda ma‘yus bo‘lib qoldi”²⁹. Hikoyada Fotima timsolida nohaqlik, boshqalarni kamsitish mujassam. Bu hikoyada ayol konseptining mohiyatini ochishda ijodkor Fotimaning nutqi orqali voqelangan “qovoq bosh”, “so‘tak”, “hammollik qilishdan boshqaga yaramaydi” kabi birliklardan unumli foydalanib, yaxlit ayol konseptining mohiyatini namoyon qiladi.

Pak Van Soning “Qora beva” (“미망”) hikoyasining tahlilida ham axloqiy konseptlarning mavjud ekanligini ta‘kidlash joiz. Yozuvchi hikoyasiga “Qora beva” (“미망”) deb nom qo‘ygani bejiz emas. Pak Van So o‘z qahramoniga “qora beva” laqabini beradi, go‘yo uning kasal eriga nisbatan shafqatsiz munosabati, pulni tejashga ishtiyoqi va boshqalarga befarq munosabatini ta‘kidlaydi. Mashaqqatli mehnat bilan topilgan pul yig‘ishga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq, o‘zgalarning uning hayotidan mutlaqo bexabarligi, ojizligi tufayli kasal eriga nisbatan nafrat va murosasizlik tuyg‘ularini omma oldida namoyon etish, mardikor ayolning yoqimsiz ko‘rinishi bilan kuchaytirilgan. Biroq, hikoyaning eng oxirida o‘quvchi ko‘z o‘ngida qahramonning butunlay boshqacha qiyofasi paydo bo‘ladi. Tashqi ko‘rinish niqob ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bu niqob ostida aql bovar qilmaydigan ma‘naviy va jismoniy sa‘y-harakatlar evaziga o‘z farzandlariga uy sotib olish uchun pul yig‘ib, ularni tilanchilikdan qutqarib qolgan ona qiyofasi tasvirlangan. Qahramonning inkorini mubolag‘ali tarzda kuchaytirish maqsadida yozuvchi tomonidan qo‘llangan quyidagi frazeologik iboralar hikoya sarlavhasining mazmunini chuqurlashtiradi va kengaytiradi: “그녀가 과부로 여겨졌다는 사실이 그녀의 이익이었다” (“*Uning beva deb hisoblangani unga qo‘l kelardi*”)³⁰; “불과 물처럼 여러 어려움을 지나온 마담조차도 이 아줌마 불명 앞에서 난감했었다” (“*Olov va suv kabi har xil qiyinchiliklardan o‘tib kelayotgan xonim ham bu notanish ayol oldida xijolatda edi*”); “그녀는 비정상적으로 어두운 피부를 가지고 있었고, 계산 생각은 검은 색이었다, 그래서 그들은 그녀를 그렇게 불렀다” (“*Uning terisi g‘ayrioddiy qoramtir edi, hattoki hisoblash fikri ham qora edi, shuning uchun uni shunday chaqirishardilar*”). Bu hikoyaning nomlanishida ramziylik mavjud. Pak Van So ayol konseptini yoritishda “qora” rangini uning maqomiga qo‘shib, shunga monand ravishda uning xarakterini ko‘rsatadi. Ayolning qilgan barcha xatti-harakatlari tashqi qiyofasiga monand, mana shu qilmishlari uning ichki olamiga ham ta‘sir qilib, xudbinlashtiradi, xulqini xunuklashtirib ko‘rsatadi. Pak Van So koreys tiliga xos bo‘lgan ichki obrazlilikni

²⁹ Ойдин. Хикоялар. – Тошкент, 1954. – Б.150.

³⁰Matning o‘zbek tiliga tarjimalari muallifga tegishli.

anglash bilan bog‘liq majoziy iboralardan mahorat bilan foydalanib, ayolning portretini o‘ziga xos tarzda tasvirlashda davom etadi: “그녀는 낚싯대로 똑바로 붙잡았고, 이는 키가 큰 것처럼 보였다” (“*U o‘zini qarmoqdek tik tutishi, uni baland qilib ko‘rsatardi*”).

Shuningdek, mazkur tadqiqotda ijtimoiy tushuncha va munosabat bildiruvchi konseptlar (urush, erkinlik, ozodlik), hissiy konsept, “xan” konseptlari va ularda ayol ichki olamining voqelanishi tahlilga tortilgan.

Xullas, ayol konsepti badiiy adabiyotning asosini tashkil qiladi. Lirik asarda ham, epik va dramatik asarlarda ham ayol konsepti va uni yuzaga chiqaruvchi birliklar faol qo‘llaniladi. Biz yuqorida ayol konseptining mohiyatini namoyon qiluvchi konseptlarning ayrimlari bilan tanishib chiqdik. Aynan tadqiqot obyektimiz bo‘lgan koreys va o‘zbek adabiyoti vakillari – Pak Van So va Oydin Sobirovalarning ijodi misolida tadqiq etdik.

XULOSA

1. Xotin-qiz ijodkorlar nafaqat yozma adabiyotda, o‘zbek va koreys folklorida ham bo‘lgan. Har ikki xalq folklori janrlarining aksariyatining mohiyatida ayol jodkorligining yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin. Alla, qo‘shiq, marsiya kabi janrlar asosan ayollar tomonidan maromiga yetkazilib kuylangan. Ularning yaratuvchilari ham ayollar, ulardagi lirik qahramon ham ayol. Demak, ayol ijodkorligi adabiyot yaratilganidan buyon mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

2. Janubiy Koreya adabiyotida xotin-qizlar nasri alohida o‘rin tutadi, uning o‘z tarixi bo‘lib, taraqqiyoti uzoq davrlarni qamrab oladi. Afsuski, o‘zbek koreysshunosligida mavzuga haligacha e‘tibor yetarlicha berilmagan. Masalaning mohiyatiga teranroq razm soladigan bo‘lsak, koreys xalq og‘zaki ijodiyoti janrlarida ham ayol qalb kechinmasini, his-tuyg‘ularini ifodalaydigan janrlar ham anchagina. Hattoki, o‘zbek va koreys xalq og‘zaki ijodi janrlaridan, jumladan, maqol, topishmoq, to‘rtlik, marsiya, qo‘shiq kabi janrlar mohiyatiga teranroq razm soladigan bo‘lsak, bu janrlarda genderlik masalasining yorqin namunasini uchratishimiz mumkin.

3. Adabiyot tarixidan ma‘lumki, o‘rta asrlarda va undan keyingi davrlarda ham o‘zbek va koreys madaniyati va adabiyoti tarixida ijodkor ayollarning nomi nihoyatda kam uchrashi, ehtimol, o‘sha zamonlarda jamiyatning yuqori tabaqa vakillari ularga unchalik rag‘bat ko‘rsatmaganligi tufayli hamdir. Biroq ilm-u ijod ahli zamonasining ilg‘or va yetuk xotin-qizlari bo‘lishini orzu qilganlar. Shunga qaramasdan, oz sonli bo‘lsa-da, ijodkor ayollarning adabiyotga qo‘shgan hissalarini tahsinga sazovor va bugungi ayollar adabiyoti uchun asos bo‘lmoqda.

4. Kishilik jamiyati shakllanib, ilm-urfonga qadam qo‘ygandan beri, ijtimoiy faoliyatning hamma sohalarida ulug‘ ayollarning nomlari zikr etilib kelinadi. Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, otashin vatanparvarlar, mashhur olimlar bilan bir qatorda, juda qadim zamonlardan beri so‘z san‘atining iftixori sanalgan so‘z san‘atkorlari bor. Qadim Yunon shoirasi Sapfo; fransuz uyg‘onish davri ijodkori Margarita Navarskaya; koreys ijodkor shoiralari: qirolicha Soxe,

Xvan Chi Ni, Li Ke Ran, Chin Ok; mashhur o'zbek shoiralari: Uvaysiy, Mahzuna va Nodira shular jumlasidandir. Ularning adabiy merosi keyingi davr ayollar adabiyoti uchun asos bo'lishi, zamonaviy o'zbek va koreys ijodkor ayollar adabiy merosi tahlili orqali yanada oydinlashtirilgan.

5. Oydin Sobirovaning asarlari o'zbek xalqining madaniyati va qadriyatlariga bir darcha bo'lib, uning mustahkamligi, qat'iyati va yaxshi kelajak qurishga intilishini namoyish etadi. Oydin Sobirovaning adabiy merosi o'zbek xalqini belgilab beruvchi qadriyatlar, urf-odatlar va intilishlar haqida chuqur tushunchalar berib, o'zbek ayolining orzusini, armonini, o'y-kechinmalarini o'zida mujassam etgan. Hayot qiyinchiliklarini cheksiz qat'iyat va matonat bilan yengib o'tadigan xotin-qizlar obrazini mahorat bilan tasvirlaganligi bilan ham ahamiyatlidir.

6. Oydin Sobirovaning asarlari o'zbek xalqining hamjihatlik va umumiy mas'uliyat tuyg'ulari asosidagi farovon kelajak qurishga intilishidan dalolat beradi. U mehnatkashlik, ilm olishga intilish va boshqa an'anaviy urf-odatlarini tasvirlash orqali qiyinchiliklarni yengish va umumiy maqsadlarga erishishda hamkorlik muhimligini ta'kidlaydi. U o'zining abadiy hikoyalari orqali o'quvchilarni kashfiyot va introspeksiya sayohatiga chorlaydi va bizni jahon hamjamiyatining a'zolari sifatida birlashtirgan doimiy qadriyatlar va intilishlarni yoritadi.

7. Pak Van Soning adabiyotdagi ahamiyati nafaqat uning mohirona hikoya qilishi, balki insoniyatning umuminsoniy kurashlarini Koreya tarixi va madaniyati nuqtayi nazaridan yoritib bera olishida hamdir. Uning asarlari dunyo bo'ylab kitobxonlarga tarqalishda davom etib, insoniyatning qiyinchiliklarni boshidan kechirgan tajribasini chuqur aks ettiradi. Ijodkor asarlari qahramonlari taqdiri orqali minglab koreys xalqining yashash tarzini, qismatini, orzu va intilishlarini tasvirlab bera olgan.

8. Jamiyatda ayolning erki va ozodligi masalasi koreys adibasi Pak Van So ijodida keng tarzda qalamga olinadi. Ijodkorning “그대 아직도 꿈꾸고 있는가” (“Hali ham tush ko'ryapsizmi?”), “삼국지” (“Uch qirollik”) va “수호전” (“Qo'riqchilarning hikoyasi”), “홍루몽” (“Qizil palata orzusi”), “춘향전” (“Chung Hyan haqidagi hikoya”) hikoyalarida, “서 있는 여자” (“Tik turgan qiz”), “엄마의 말뚝” (“Ona iztirobi”) kabi romanlarida ona, singil, xotin, qizaloq obrazlarida o'z ifodasini topadi.

9. Pak Van So asarlarida asosan koreya urushi voqealari fonida ayollarning jamiyatdagi o'rni tasvirlanadi. Koreya urushi koreys ayollari ruhiyatida nihoyatda katta evrilish sodir qilganligi, ular oilada ham ayol, ham erkak sifatida mas'uliyat bilan farzand tarbiyalaganligi, natijada bu xizmatlari tufayli ayollarning fikrlashi, tafakkuri o'zgarib, o'zlarining erkin fikrlari bilan ozod va erkin ayol obrazini yaratayotganligi tasvirlangan.

10. Konseptlar Oydin Sobirova va Pak Van So hikoyalarida mavzuning boyligiga hissa qo'shadi. Axloqiy, hissiy, xan konseptlari dinamikasini o'rganish orqali Pak Van So va Oydin Sobirovalarning ijodida ayol konseptining mohiyati teranlashadi. Har ikki yozuvchi o'zining nozik va introspektiv hikoyalari orqali o'quvchilarni koreys va o'zbek madaniyati va tarixining o'ziga xos kontekstida

sevgi, yo‘qotish va chidamlilik kabi universal mavzular haqida fikr yuritgan hamda ularni ifodalashda faqat o‘zbek va koreys xalqi madaniyatiga xos bo‘lgan milliy konseptlardan mahorat bilan foydalangan.

11. O‘zbek va koreys badiiy matnlarida “ayol” konseptini birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar mavjud: o‘z farzandlarini behad sevadilar, ularning orzu-umidlari ushalib, baxtiyor bo‘lishlarini yurak-yurakdan istaydilar. Badiiy adabiyotda “ayol” konsepti “oila” konsepti bilan birgalikda to‘la namoyon bo‘ladi. O‘zbek va koreys adabiyotida “ayol”, “oila” kabi milliy qadriyatlarning mavjudligi va ularning qadr-qimmati so‘z san’ati bo‘lmish adabiyotda ham o‘ziga xos tarzda tasvirlanishi bilan ham ahamiyatlidir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil. 83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

БАЗАРОВА ШАХЛО ШУХРАТОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА
ЖЕНЩИНЫ В СОВРЕМЕННОЙ КОРЕЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
ЛИТЕРАТУРЕ**

(на примере творчества Пак Ван Со и Ойдин Сабировой)

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан (рег.№ В2024.2.PhD/Fil4846).

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Умурова Гузал Хотамовна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Каршибоева Ульжон Давировна
доктор филологических наук (DSc), профессор
Аббасова Дильфуза Каримбековна
доктор философии (PhD), по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация: Узбекский государственный университет
мировых языков

Защита диссертации состоится « 7 » мая 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 91824). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан « 22 » апреля 2025 года.
(Протокол реестра рассылки за № 10 от « 22 » апреля 2025 года)



Н.З.Насруллаева
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Кулдошев
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А.Киселев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировом литературоведении актуальными задачами считаются сравнительное изучение художественных произведений двух народов, развитие литературных связей между нациями, а также научная оценка и исследование выражения национального духа в этих произведениях. Особое внимание уделяется воссозданию историко-национального контекста в художественных текстах, а также научно-теоретическому анализу этих вопросов. В данный момент исследования, направленные на глубокое изучение особенностей восприятия жизни, человека и мира в литературных произведениях, отражающих проблему возрождения национальной идентичности, а также анализ творчества отдельных авторов с позиции законов художественности, имеют особое значение.

На современном этапе развития науки в мировом литературоведении всё более востребованным становится применение различных подходов к изучению художественных произведений, исследование творческого мира отдельных авторов, их поэтической концепции, а также изучение женской литературы и её развития на основе современных критериев. Проведение исследований в соответствии с этими принципами и стандартами, адаптация научных изысканий к приоритетным направлениям, а также изучение женской литературы в контексте современной узбекской и корейской филологии с учётом достигнутых в этой области успехов и новых научных концепций стало необходимостью. Такой подход позволяет проводить обширные исследования, основанные на новых научных концепциях, что имеет важное значение для дальнейшего развития филологической науки.

После обретения независимости исследование вопросов сравнительного изучения литературы, истории и культуры двух народов поднялось на новый этап. Наблюдения показывают, что в литературоведении творчество женщин-писательниц стало предметом особого внимания, где основное место занимают вопросы женской души, её судьбы, а также разнообразие литературных жанров и художественных стилей. В их произведениях органично отражаются личная и духовная жизнь, социальная роль и положение женщины в обществе. На перекрёстках жизненных путей женщина предстает как сильный, волевой, трудолюбивый, милосердный, преданный и верный образ, чья духовная жизнь, переживания и внутренние кризисы становятся предметом анализа. Кроме того, сравнительное исследование женских образов в произведениях узбекских и корейских писательниц позволяет выявить общие и отличительные черты, что свидетельствует о важности данной проблемы. Как отметил наш Президент: “внимание к литературе, искусству и культуре – это, прежде всего, внимание к нашему народу и его будущему. Как сказал великий поэт Чулпон, если живёт литература и культура, то живёт и нация. Мы не имеем права забывать

об этом”³¹. Эти слова ставят перед современной наукой серьёзные задачи. Следует особо подчеркнуть, что сегодня мы наблюдаем изменения традиционных взглядов общества на роль женщин в социальной жизни. Это, в свою очередь, создаёт условия для формирования теоретической основы женской литературы и появления нового направления – женского литературоведения.

Данное диссертационное исследование вносит определенный вклад в реализацию задач, обозначенных Постановлениями Президента Республики Узбекистан № ПП–2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17.02.2017 г., № ПП–3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 05.06.2018 г., Указами Президента Республики Узбекистан № УП–5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8.10.2019 г., Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП–5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19.05.2021 г., Указами Президента Республики Узбекистан № УП–60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28.01.2022 г., и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики Узбекистан: I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой и узбекской литературоведческой науке образ женщины, её духовный мир, женская душа и их отражение в поэтике стали объектами многочисленных исследований. В частности, в английском, русском и корейском литературоведении³² этот

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

³² Baym N. Woman’s fiction: A guide to novels by a. about women in Amerika, 1820-1870. (Ayollar badiiy adabiyoti: Amerikadagi ayollar haqidagi romanlarga qo’llanma, 1820-1870). – Xaga; London: Cornell univ. Press, 1978. – 320 p.; Graves A.J. Woman in America. (Amerikadagi Ayol), 1844.; Makintosh M.J. Woman in America: Her work and her reward. (Amerikadagi ayol: uning mehnati va mukofotlanishi). – N.Y.: – Filadelfiya, 1850.; Липневич В. Литературное обозрение. (Adabiy mushohada), 1986, -№ 3. – С. 43-47.; Shouvolter E. Woman who write are woman. (Ayol yozuvchilar ayoldirlar). – New York times book, rev., 1984. 16 dec. – P.1-31.; Чабан Т. Традиция обязывает (An’ana majbur qiladi) // Неман. – Минск, 1984, -№ 3. – С. 162-167.; Зорин А. Русские поэты XIX века. (XIX asr rus shoirlari) // Библиотекар. – Москва: 1982, -№ 3. – С. 51-53.; Алиевой С. Мир глазами женщины. Заметки на полях «женской прозы». (Dunyo ayol nigohida. “Ayol nasri” sohasiga oid eslatmalar) // Литературная Россия, 1984 йил, 9 марта, -№ 11. – С.11.; [곽은경.(2001).박완서 소설에 나타난 가족관계의 양상. 「건국대학교 일반대학원」. 22-99.서울:건국대학 교]; 권명아. (1994). 박완서 문학연구

вопрос освещён в работах таких учёных, как Нина Бейм, А.Дж.Грейвс, Мария Макинтош, В. Липневич, Э. Шоволтер, Т. Чабан, А. Зорин, С. Алиева, Квак Ин Кён, Квон Мён, Ким Юн Шик, Пак Хе Рим. В узбекском литературоведении³³ данную тему изучали Ш.Абдуллаева, А.Муминова, Х.Лутфиддинова, П.Кенжаева, О.Дуйсенбаев, Г.Умурова, Ю.Эшматова, М.Уразбаева, Н.Хайталиева, Н.Салохиддинова, Х.Мухаммедова и М.Халова.

Несмотря на широкий спектр вопросов, обсуждаемых в вышеупомянутых исследованиях, тема образа женщины и её духовного мира в феминистской литературе Кореи и Узбекистана остаётся недостаточно изученной. Отсутствие подробного изучения данной проблемы как самостоятельного объекта исследования подчёркивает необходимость проведения специального научного анализа в этом направлении.

